

QO'QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 2-son)



PEDAGOGIKA
PEDAGOGY

KIMYODA AMALIY MASHG'ULOTLARNI TURLI XILDAGI MO'JIZAKOR SO'ZLARDAN FOYDALANIB O'QUVCHILARNING E'TIBORINI VA QIZIQISHINI OSHIRISH

Xudayarova Nargiza Olimjon qizi

2- bosqich magistri -Jizzax davlat pedagogika universiteti

Email:nargizaxudayarova1@gmail.com, +998994103792

Annotatsiya Tabiiy fanlarga asoslangan bilim hamda ko'nikmalar har bir shaxsning shaxsiy, ijtimoiy va kasbiy faoliyatida katta ahamiyatga ega, ilm- fan va unga asoslangan texnologiyalarni tushunish esa „yoshlarni hayotga tayyorlash“da markaziy o'rinni egallaydi. Maktab yoshlar uchun o'z qobiliyat va ko'nikmalarni, shu jumladan ijodiy talantlarni kashf etishda muhim ahamiyatga ega. Kimyo fani dastlab 7-sinfda ilk bor o'tila boshlanadi. Bu yoshda bolalar yangi fan bo'lgani uchun dastlabki qiziqishlari baland bo'ladi. Amaliy mashg'ulotlarda foydalaniladigan turli reaktivlar, asbob va uskunalar o'quvchilarda kimyo faniga bo'lgan qiziqishni yanada oshiradi. O'qituvchilar kreativ fikirlashni ajrata olishlari, bunday fikirlashga mos shart- sharoitlarni bildirishlari va o'zlari ham o'quvchilarga fikirlashda ko'proq ijodiy yondashishga yordam bera olishni bilishlari lozim. O'quvchilarning qiziqishini oshirish maqsadida turli xildagi multifikatsion rasmlardan foydalandim.

Kalit so'zlar: tabiiy fan, shaxs, ta'lim, kreativ, maktab, o'quvchilar, amaliy mashg'ulotlar, o'qituvchi, e'tibor, qiziqish.

УВЕЛИЧЕНИЕ ВНИМАНИЯ И ИНТЕРЕСА СТУДЕНТОВ, ИСПОЛЬЗУЮЩИХ ПРАКТИЧЕСКИЕ УРОКИ В QIMDY В КИМАКЕ

Анотация важна, и навыки важны в личной, социальной и профессиональной деятельности естественной, социальной и профессиональной деятельности каждого человека, при этом понимая молодых людей, готовит молодых людей к подготовке молодых людей. Школа важна для молодых людей в поиске собственных способностей и навыков, включая творческие таланты. Химия ведет первым в 7 в первый раз. Первоначальные интересы для детей в этом возрасте высоки для новой науки. Различные реагенты, инструменты и оборудование, используемые в практическом обучении, еще больше повысят интерес к химии у студентов. Учителя должны уведомить творческий допрос, чтобы сказать соответствующие условия для таких размышлений, и они сами могут помочь студентам помочь более творческому подходу. Я использовал разные типы карт, чтобы увеличить интерес студентов.

Ключевые слова: естественная наука, личность, образование, творческий, школа, ученик, учитель, внимание, интерес.

INCREASING THE ATTENTION AND INTEREST OF STUDENTS USING PRACTICAL LESSONS IN KIMDY IN KIMAKA

Anotation is important and skills important in the personal, social and professional activities of natural, social and professional activities of each person, while understanding young people, preparing young people in the preparation of young people. The school is important for young people in discovering their own ability and skills, including creative talents. Chemistry leads first in 7 for the first time. The initial interests are high for children in this age for the new science. The various reagents, tools and equipment used in practical training will further increase interest in chemistry in students. Teachers should notify creative interrogation, to say the corresponding conditions for such reflection and they themselves can be able to help students help more creative approach. I used different types of cards to increase the interest of students.

Keywords: natural science, personality, educational, creative, school, student, teacher, attention, attention, interest, interes

KIRISH XXI asrda insoniyat oldida turgan muommolar ilmiy tafakkur va ilmiy kashfiyotlarga asoslangan innovatsion yechimlarni talab etishi shubhasiz. Jamiyatga iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik muommolarni hal qilishda zarur bo‘ladigan innovatsiyalarni rivojlantiradigan va ilmiy tadqiqotlar olib boradigan ilm egalari, olimlar kerak. Aytish mumkinki, tabiiy fanlar bo‘yicha savodxonlik tayanch kompetensiya sanalib, tabiiy fanlarni o‘qitishning asosiy maqsadidir. Tabiiy fanlarga asoslangan bilim hamda ko‘nikmalar har bir shaxsning shaxsiy, ijtimoiy va kasbiy faoliyatida kata ahamiyatga ega, ilm- fan va unga asoslangan texnologiyalarni tushunish esa „yoshlarni hayotga tayyorlash“da markaziy o‘rinni egallaydi. Tabiiy fanlar bo‘yicha savodxonlik deganda shaxsning tabiiy fanlarga oid g‘oyalarni bilishi, faol fuqaro sifatida tabiiy fanlar bilan bog‘liq muommolarni hal qila olishi tushuniladi. Tabiiy fanlar bo‘yicha savodxon bo‘lgan shaxs tabiiy fanlar va texnologiyalarga oid muommolarni ilmiy dalillarga asoslangan holda muhokama qilishda ishtirok eta oladi[1]. Har bir insonni qamrab oluvchi odil va yuqori sifatli ta’lim tizimini ta’minlash va ta’lim olishiga rag‘batlantirish. 2000- yilidan boshlab har bir insonning boshlang‘ich ta’lim olish imkonini ta’minlash borasida kata yutuqlarga erishildi[1]. Maktabda kreativ fikirlashni rivojlantirishning ahamiyati faqatgina mehnat bozori bilan cheklanmaydi. Maktab yoshlar uchun o‘z qobiliyat va ko‘nikmalarni, shu jumladan ijodiy talantlarni kashf etishda muhim ahamiyatga ega . O‘quvchilar barcha fanlardan kreativ fikirlashi mumkin. O‘qituvchilar kreativ fikirlashni ajrata olishlari, bunday fikirlashga mos shart- sharoitlarni bildirishlari va o‘zlari ham o‘quvchilarga fikirlashda ko‘proq ijodiy yondashishga yordam bera olishni bilishlari lozim[2]. Buning uchun dastlab, o‘qituvchi o‘zining faniga e’tibor qarata olishi va shu fanga qiziqтира olishi lozim. Insonning eng muhim huquqlaridan biri ta’lim olishdir. Chunki ta’lim bizning ertangi kunimiz,

tinch va faravon hayotimizga zamin yaratadi. Biz o‘zimizdagi bilim va salohiyat bilan yurtimiz taraqqiyotiga o‘z hissamizni qo‘sha olamiz. Yaxshi mutaxassis bo‘lish uchun esa, o‘qish, o‘rganish kerak.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Yurtimizda ta‘lim olish uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Shunday bilim va ko‘nikmalar borki, ularni egallamay turib turmush kechirishning imkoni yo‘q. Masalan, o‘qish va yozishni, oddiy hisob kitobni bilmaydigan odamni ko‘z oldingizga keltirib ko‘ringchi. Bunday odam hozir sizni biz yashayotgan dunyoga moslashib ketishi mumkinmi? Albatta yo‘q! Chunki bunday bilimlar hayotning poydevori, har qanday kasbning kaliti hisoblanadi. Yurtimiz hududida juda qadim zamonlardan buyon maktablar faoliyat yuritib kelinadi. Umumiy o‘rta ta‘lim tizimida har bir bola egallashi zarur bo‘lgan tabiat, jamiyat, san‘at, ma‘daniyatga doir bilim va ko‘nikmalarni o‘qitiladi[3]. Kimyo bugungi kunda keng qamrovli, o‘zida bir necha aniq fanlar asosini mujassamlashtirgan fanlardan biri hisoblanadi. Sanoatlashgan asrda kimyoni bilish bugungi kunning asosiy talablaridandir. Kimyo fani dunyoning deyarli har bir maktabida XVIII asrdan buyon o‘qitib kelingan. Mazkur aniq fan biroz bosh qotirishga majbur etgani bois, undan aksariyat o‘quvchilar uzoqroq yurishni ma‘qul ko‘radilar[4]. Shuning uchun bu fani sodda va qiziqarli qilib o‘tish talab qilinadi. Buni kimyo fanidan o‘tiladigan amaliy mashg‘ulotlarda ko‘rib chiqamiz. Kimyo fani dastlab 7-sinfda ilk bor o‘tila boshlanadi. Bu yoshda bolalar yangi fan bo‘lgani uchun dastlabki qiziqishlari baland bo‘ladi. Amaliy mashg‘ulotlarda foydalaniladigan turli reaktivlar, asbob va uskunalar o‘quvchilarda kimyo faniga bo‘lgan qiziqishni yanada oshiradi. Shu e‘tibor va qiziqishni yo‘qotib qo‘ymasligi o‘qtuvchining bilim, ko‘nikma va malakasiga bog‘liq. O‘quvchilar kimyo fanidan bilimlarni egallab borar ekanlar, bu fan naqadar mo‘jizakor dunyo sirlarini ochishini his qiladilar. O‘quvchilarga nazariy bilimlar bilan birgalikda, amaliy mashg‘ulotlarni ham birga olib borilishi lozim. Amaliy mashg‘ulotlarni bajarishda o‘quvchilarda ko‘plab savollar tug‘iladi. Sababi nazariyda olingan bilimlar ularga shu mavzuni to‘laligicha yoritib ber olmasligi mumkin. Ba‘zi bolalarda kreativ savollar ham tug‘ilib qolishi mumkin. Agar amaliy mashg‘ulotlar zerikarli, natija ko‘ngildagiday chiqmasa bola bu fandan zerikadi va qiziqishi so‘nadi. Shuning uchun ba‘zan o‘quvchilarga noodatiy bo‘lgan amaliy mashg‘ulotlarni ham o‘tkazib turush lozim. Dars jarayonida bo‘lmasa, darsdan keyin tashkil qilingan to‘garak mashg‘ulotlarda olib borishni tashkil qilish lozim.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Bolalar bu fanga qiziqish bildirmasa ularni turli xildagi mo‘jizakor so‘zlar bilan, o‘qtuvchi o‘ziga jalb qilishi mumkin. Masalan, amaliy mashg‘ulot nomlari noodatiy so‘zlar orqali: “Yonmas qo‘l”, “Svetafor”, “Fir‘avn iloni”, “Olovsiz tutun” va h.z. larni misol keltirish mumkin. Dars jarayonlarida ba‘zan kimyodan qiziqarli hikoyachalar orqali o‘quvchilarning qiziqtirishga harakat qilaman. O‘quvchiga darslikdan tashqari bo‘lgan ma‘lumotlar ham juda qiziq. O‘quvchilar ba‘zan qayerda yozilgan, kitobning nechanchi betida, degan savollar beradi. Kitobingizda bu haqida ma‘lumot keltirilmagan deb, o‘qigan kitoblarimning nomini aytish orqali o‘quvchilarni izlanishga undayman. Bu amaliy mashg‘ulot nomlari o‘quvchilarda

beixtiyor turli xil savol va fikrlar vujudga kelishiga sabab bo‘ladi. O‘qituvchi ham bozor iqtisodiyotidagi talab va taklifga binoan ish ham yuritishi lozim. Chunki o‘quvchi talablarini ham inobatga olgan holda dars faoliyatini olib borishi lozim. Bu esa bolalarning erkin fikirlashiga yordam beradi. Dars jarayonida 7- sinflarga amaliy mashg‘ulotlar tashkil qilganimda, ularni nazariya bilan amaliyni bog‘lab o‘tganimda ham sinfda raqobat, hamjihatlikni ham yuzaga keltirar edim. Bu bolaning tarbiyasiga juda sezirali ta’sir ko‘rsatardi.

Sinf o‘quvchilarning barchasi nazariy bilimlar bilan tanishgan bo‘lishi, kim tanishib chiqmagan bo‘lsa, amaliy mashg‘ulotni shu bola tanishib chiqmmaguncha boshlanmasligini aytar edim. Nazariy savol va javoblarda barcha birday ishtirok etmadi dastlab, chunki ba’zi o‘quvchilar tayyorlanmasdan kelar edi. Sinfdoshlarning turli xildagi gaplarini eshitgan o‘quvchilar asta- sekinlik bilan kamayib, deyarli barcha o‘quvchilar savol va javoblar da faol qatnashishni boshladilar. O‘quvchilarning qiziqishini oshirish maqsadida turli xildagi multifikatsion rasmlardan foydalandim. Misol uchun “Muzlik davri - 3” multfilimi qahramonlari yer ostiga sayohat qilganlarida jarlikdan o‘tish uchun nafas olmasliklari, bu jarlikdagi gaz yashilrangda bo‘lib undan nafas olishsa kulib- kulib o‘lishlari mumkunliklari haqida, shu yerda yashovchi hayvonlardan biri ogohlantiradi. Bu gaz haqiqatdan ham borligi bu azot bir oksidi ekanligini o‘quvchilarga aytganimda, ularda turli xildagi savollar paydo bo‘la boshladi. Hatto darsga qiziqish bildirmayotgan chekka partada o‘tirib barchaga turli xildagi harakatlari bilan halaqit berayotgan o‘quvchining ham e’tiborini tortdi.



XULOSA

Bola baribir bolaligicha qoladi, uni dunyosiga kirish uchun biz pedagoglar ham bor mahoratimizni ishga tushurmog‘imiz lozim. Bola dunyosi beg‘ubor, sodda tuzilgan. Faqat biz kattalar ularning qiziqishlarini e‘tiborga olmasdan, o‘z dunyoyimizni yaratmoqchi bo‘lamiz. Ularning hayollarini to‘zg‘itib yuboramiz, oz orzularimiz yo‘lida, ularning orzularini qurbon qilamiz. Ayniqsa bu masala ota- onalarga tegishli. Sababi bolaning qiziqgan soha vakili emas balki, o‘zlari orzu qilgan kasb egasi bo‘lishga undaydilar. Bu albatta noto‘g‘ri. Bolaligidagi egallashi lozim bo‘lgan kasb keyinchalik, bolaning dunyoqarashi, zamon talabi bilan o‘zgarishi mumkun. Bu bolada yangidan yangi bilimlarni egallagan sari vujudga kelishi mumkun. Pedagogik faoliyatimda juda ko‘p uchragan holatlaridan biri :menga bu fan kerak emas, kimyo fani nimaga kerak? Hayotimda qo‘llamayman degan o‘quvchilarni ko‘p uchratdim. Lekin degan joyi ham bor deyishadiku! Yuqori sinf bo‘lganlarida esa aynan kimyo fani bilan bog‘liq bo‘lgan kasb egasi bo‘lishni istab qolishadi. Ularda turli o‘quv markazlariga borib kimyo fanini o‘rganganlarining guvohi bo‘ldim. O‘quvchilarda dastlabki kimyoviy tushunchalar bo‘lmas ekan, o‘quv markazlarida tahsil olayotgan o‘quvchida ham tushunish, fikirlash kam bo‘ladi. Bola shu fanda o‘rganishi juda qiyin bo‘ladi. O‘quvchilarimga barcha fanlardan o‘rganishga harakat qilinglar chunki, ertangi hayot – faoliyatlaringda barchasining o‘z o‘rni bor deb takror va takror aytaman va misollar asosida tushuntirib berishga harakat qilaman.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. M.Pardayeva, Z.Sangirova, S.Xasanova [va boshq.]. (2021). Maktab o‘quvchilarida hayotiy ko‘nikmalarni rivojlantirish (tabiiy fanlari) [Matn]: metodik qo‘llanma, Toshkent: Respublika ta’lim markazi, Bakteria press.
2. U.Sharifxodjayev, D.Norboyeva/ Tarjima- M.Maxsudov. (2020). PISA tadqiqotida kreativ fikirlashni baholash doirasi/Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti/Umumiy tahrir- / Xalq ta’lim vazirligi- Toshkent.
3. Sh. Bahronov, S.Qurbonov. (2021). Bolalar uchun yuridik ensiklopediya [Matn] :- T.:”Adolat” milliy huquqiy axborot markazi.
- 4.L.Vlasov, D.Trionov (2017). Kimyodan qiziqarli saboqlar. Toshkent ”O‘zbekiston”